

THE MECHANISM OF FINANCING THE GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN

Rajabov Saddambek Utkir o'gli

Tashkent Financial Institute,

Lecturer at the Department of International Finance and Credit

saddam7395080@mail.ru, Tel: 97 739-50-80

ANNOTATION

The purpose of the article is to further accelerate the financing of the "green economy" in Uzbekistan and increase its use, mainly to study the conditions and actions for the use of renewable energy sources, to find opportunities to accelerate this process. The article discusses the institutional framework for financing the "green economy", the main directions of economic development. Suggestions are made for the widespread introduction of renewable energy sources and energy efficiency in housing and communal services, social facilities and other areas.

Keywords: green economy, solar energy, renewable energy, innovative technology, wind generators, solar collectors, power generation.

KIRISH

Yahsil iqtisodiyot bu ho'jalik hayot tarzida, kichik ishlab chiqarishda, sanoat miqyosidagi ishlab chiqarishda energiya tejamkor, atrof muhitga va havoga kam chiqindi chiqaruvchi, tez chiryidigan, oson utilizatsiya bo'luvchi mahsulot va inovatsion texnologiyalardan foydalanishga o'tish va ularni moliyalashtirish jarayoni.

Uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va yashil iqtisodiyotni shakllantirish muammosi asosan institutsional xususiyatga ega. Iqtisodiy rivojlanish darajasi jamiyat uchun mavjud resurslar va texnologiyalarning miqdori va sifatini aks ettiruvchi resurs-texnologik omil bilan ham, institutsional omil yoki iqtisodiy faoliyatni ijtimoiy tartibga solish mexanizmi bilan ham belgilanadi.

Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash va barcha sohalarda "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.

2026 yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarishni qo'shimcha 30 milliard kVt/soatga oshirib, jami 100 milliard kVt/soatga yetkazish.

2026 yilgacha qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 25 foizga oshirish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash.

O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash.

Sanoatdagi yo'qotishlarni kamaytirish va resurslar samaradorligini oshirish.

Уй-жой-коммунал хўжалиги, ижтимоий соҳа объектлари ва бошқа соҳаларда қайта тикланувчи энергия манбаларини кенг жорий этиш ва энергия самарадорлигини ошириш.

Elektr transport vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish choralarini ko'rish.

YaIM birligiga emissiyalarni YaIMning 10% ga kamaytirish.[1]

Barqaror iqtisodiy rivojlanish kontsepsiyasi uchta komponentni o'z ichiga oladi: ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy barqarorlik.

Ijtimoiy barqarorlik deganda jamiyatning ichki tuzilishi va funksiyalarini kelajak avlodlarda saqlab qolish va takror ishlab chiqarish qobiliyati tushuniladi.

Ekologik barqarorlik deganda ekologik tizimlarning salbiy tashqi omillar ta'sirida o'z xususiyatlari, parametrlari va funksiyalarini saqlab turish qobiliyati tushuniladi.

Iqtisodiy barqarorlik iqtisodiy tizimning uzoq muddatda iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini saqlab turishini anglatadi.

Maqsadlari bo'yicha har xil bo'lgan bu uch tizimning (iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy) bog'lanishi faqat iqtisodiy institutlarning samarali tizimini ishlab chiqish orqali amalga oshirish mumkin. Quyidagilar iqtisodiy institutlar tizimi samaradorligining asosiy mezonlari bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- joriy huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy institutlar tizimi tomonidan kelgusida iqtisodiy rivojlanishning institutsional cheklanishi yoki cheklanishining yo'qligi;
- tashqi ta'sirlarni mahalliyashtirish;
- institutsional muvozanat, bu rasmiy institutlarning etarliligi va izchilligi, shuningdek, institutsional tizimdagi rasmiy institutlarning norasmiylariga mos kelishini bildiradi.

Iqtisodiy o'sishda institutsional cheklovlarning yo'qligi. Barqaror rivojlanishning muhim sharti - mavjud iqtisodiy institutlarning sifati hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish shartlari, ishbilarmonlik muhitining sifati (investitsiya muhiti) jamiyatda qabul qilingan institutlarga bog'liq.

Mulk huquqlarini spetsifikatsiyalash va himoya qilish, uzoq muddatli kreditlash, arbitraj institutlari iqtisodiy o'sish sharti bo'lgan iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiyalar darajasini belgilaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik mexanizmlarning maqsadi biosferada uyg'unlik va rivojlanishni ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiy mexanizmlarning maqsadi jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdan iborat. O'z rivojlanishini tashqi dunyo bilan uyg'unlashtirmasdan turib buni amalga oshirish mumkin emas degan tushuncha paydo bo'ladi. Klassik ta'rifga ko'ra, ekologiya tabiat iqtisodiyotidir. Hozirgi bosqichda ekologiya bugungi kunda iqtisodiyot ekanligini tez-tez eshitish mumkin.

Demak, hozirgi zamon iqtisodiyoti inson va jamiyat ekologiyasi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish talablariga tobora ko'proq javob berishi kerak. Bu yashil iqtisodiyotning maqsadi. Ekologik muammolarga duch kelgan har qanday iqtisodiyot to'xtashga va vaziyatni yaxshilash uchun katta miqdorda mablag' sarflashga majbur. Bular G'arbiy Evropadagi daryolar va AQSh va Kanadadagi Buyuk ko'llar bo'lib, sanoatlashtirish boshlanishida aholi uchun xavfli kanalizatsiyaga aylandi. Iqtisodiyotni "yashillashtirish" tabiat uchun emas, balki inson uchun, insoniyatning inqirozsiz rivojlanishi uchun zarur ekanligi ayon bo'ldi.[15]

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot va uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, qiyoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP)[2] tomonidan boshlangan Ekotizim iqtisodiyoti va biologik xilma-xillik tashabbusiga ko'ra, biologik xilma-xillik qimmatli ekotizim xizmatlarini ko'rsatish orqali nafaqat turmush darajasini (oziq-ovqat, xom ashyo, energiya) ta'minlabgina qolmay, fuqarolar va kompaniyalarning hayotiga bevosita ta'sir qiladi, oddiygina insonning mavjudligini ta'minlovchi kislorodni aytmasaham bo'ladi.

Tabiat xizmatlarni bepul taqdim etadi va bu xizmatlardan mahrum bo'lish ehtimoli biznes uchun jiddiy tahdiddir. Price Waterhouse Coopers tasdiqlaydiki, butun dunyo bo'ylab so'rovda qatnashgan bosh direktorlarning 27 foizi biologik xilma-xillikning yo'qolishi biznesning rivojlanish istiqbollarga ta'siridan xavotirda.[3]

Biroq, tabiat xizmatlarining aksariyati YaIMda o'z aksini topmaydi. YaIMga kelsak, Mingyillik ekotizimini baholashda shunday deyiladi:[4] "Mamlakat o'z o'rmonlarini va ortiqcha baliq zahiralarni qisqartirishi mumkin va bu aktivlarning tegishli pasayishini qayd etmasdan turib, faqat YaIMning o'sishini (bugungi iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichi) ko'rsatadi. Kelajakdagi iqtisodiy farovonlikni baholash uchun to'g'riroq mezonidir. Xuddi shu hisobotda tabiiy tizimlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissi tahlil qilingan, uning qiymati 7309 AQSh dollarini tashkil etadi.



1-jadval. Biologik xilma-xillik, ekotizimlar va ekotizim xizmatlari o'rtasidagi munosabatlar

Biologik xilma-xillik, ekotizimlar va ekotizim xizmatlari o'rtasidagi munosabatlar

| biologik xilma-xillik | Ekotizim tovarlari va xizmatlari (misollar) | iqtisodiy qiymati |
|--|--|---|
| Ekotizimlar (xilm-axillik va masshtab/xudud) | Suvni tartibga solishni tiklash | O'rmonlarni saqlash orqali chiqindilarni kamaytirish: 3,7 trillion dollar sof joriy qiymat[5] |
| Turlar (xilm-axillik va raqamlar) | Oziq-ovqat, iqtisodiyot uchun o'simlik xom ashyosi, yoqilg'i. Dizayn g'oyalari Changlanish | Hasharotlarni changlatishning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga qo'shgan hissasi: yiliga ~ 190 milliard dollar[6] |
| Genlar (o'zgaruvchanlik va populyatsiyalar) | Tibbiy kashfiyotlar Kasalliklarga chidamlilik Moslashuvchanlik | 640 milliard dollarlik farmatsevtika bozorining 25-50 foizi genetik resurslarga bog'liq[7] |

Manba: UNEP(Birlashgan millatlar tashkilotining atrof-muhit dasturi): Ekotizimlar va biologik xilma-xillik iqtisodiyotni.

Ishonch bilan aytish mumkinki, bu holatda to'g'ridan-to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjud va insoniyatning o'zini o'zi ta'minlashga erishish maqsadi haqiqatdan uzoqdir. Shu nuqtai nazardan, har doim ham bir ma'noda tushunilmaydigan tabiiy renta tushunchasiga qaytish kerak. Demak, "tabiiy renta deganda qazib oluvchi tarmoqlar oladigan ortiqcha foyda tushuniladi"[8]. Renta qazib oluvchi sanoatdagi haqiqiy foyda va oddiy (iqtisodiy) foyda o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Resurs rentasi Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT)[9] tomonidan quyidagicha ta'riflangan: "Tabiiy resurslarning iqtisodiy rentasi tabiiy resurslar tomonidan taqdim etilgan kapital xizmatlari qiymatiga yoki ularning yalpi daromadga ulushiga tengdir".

Hozirgi vaqtda[10] sayyoramizning atigi 4 foiz qo'riqlanadigan hududlar (qo'riqxonalar). Biz buni insoniyatning tabiiy resurslarga bo'lgan "iqtisodiyoti" sifatida tavsiflashimiz mumkin. Watson, J.E. (2014)[11] yozganidek, qo'riqlanadigan hududlar iqtisodiy aktivlarga aylangani uchun o'zlarining ijtimoiy vazifalarini ko'paytirdi, "qo'riqlanadigan hududlar tabiatini muhofaza qilish, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishi kutilmoqda, ammo ularga erishish uchun milliy byudjetlardan muntazam ravishda ajratmalar zarur". Atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari asosan chiqindilarni utilizatsiya qilish, oqava suvlarni tozalash, biologik xilma-xillik va landshaftni saqlash, tabiatdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar va boshqalar bilan bog'liq. Shunday qilib, 2016 yilda "EI"da atrof-muhitni muhofaza qilish uchun o'rtacha xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 0,7 foizini tashkil etdi va 2017 yilda 316 milliard evroni[12] tashkil etdi. Chiqindilarni boshqarish xarajatlarning eng katta qismini (o'rtacha 0,4%) tashkil etdi, biologik xilma-xillik xarajatlari esa kamaydi.

Yevropa Ittifoqida eng ko'p sarf-xarajat ulushiga ega bo'lgan davlat Gretsiya (YaIMning 1,6%) hisoblanadi. Butunjahon tabiatni muhofaza qilish monitoringi markazi ta'kidlashicha, Evroosiyo yoki Xitoydan ishonchli ma'lumotlarni olish ancha muammoli. "Muhofaza etiladigan hududlar uchun o'rtacha global byudjet 1996 yilda km² uchun 893 dollarni tashkil qilgan. Rivojlangan mamlakatlarning o'rtacha byudjeti 1 km² uchun 2058 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarniki 157 AQSH dollarini tashkil etgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash va chora-tadbirlarni amalga oshirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

mamlakatning energetika xavfsizligini mustahkamlash, yoqilg'i-energetika balansining qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda elektr, issiqlik energiyasi va biogaz ishlab chiqarishga doir qismini diversifikatsiyalash;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasiga innovatsion texnologiyalarni, ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni joriy etishni, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining energiya jihatdan samaradorligini oshirishni, ularning ishlab chiqarilishini kengaytirishni va mahalliyashtirishni rag'batlantirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning sinab ko'rilgan texnologiyalari asosida energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga tadbirkorlik subyektlarini jalb etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilarni, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Inovatsion texnologiyaning yashil iqtisodiyotga tasirini quyidagi texnologiya namunalarida ko'rishimiz mumkin:

quyosh panellari

shamol generatorlari

quyosh kollektorlari

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda hozirgi vaqtda atrof muhit va tabiat butunligini, iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash asosiy maqsad yani tabiatni asrash uchun ajratiladigan mablag'lar, moliyalashtirilayotgan loyihalarga yonaltirilgan mablag'lar ishlatilishida, ishlab chiqarish jarayonida atrof muhitga zararini maksimal darajada kamaytirish, xalqari moliya institutlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalariga va energiya tejoychi loyihalarga mablag'lar yo'naltirish tabiiy resurslarni sezilarli darajada tejashga, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga zamin yaratadi. Xo'jalik hayotdaham energiya tejoychi texnologiyalardan, qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi, issiqlik energiyasi uchun sarflanadigan sarf harajatlar sezilarli darajada kamayadi, iqtisodiy o'sishga ijobiy tasir ko'rsatadi, inson turmush sharoitini yaxshilashda vosita bo'lib hizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida quyoshli kunlarning ko'pligini hisobga olsak uy-joy-komunal xo'jaligi, ijtimoiy soha ob'ektlari, shahar va qishloq joylardagi aholi honadonlarida elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun quyosh panellari va quyosh kollektorlaridan, uyni issiq suv va qish faslida isitish uchun quyosh kollektorlarini o'rnatish orqali tabiiy resurslardan foydalanishni 50 foizdan 90 foizgacha tejash imkoniyati mavjud.

Tijorat banklarida aholi uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi isitgichlarni sotib olish uchun, kredit liniyalarini ochish orqali ommalashtirish mumkin. Tadbirkorlar uchun quyosh panellari va quyosh batareyalarini ishlab chiqarishni yo'lga qoyish uchun kredit liniyalarini ochish evaziga import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish va mahsulot tan narhini tushishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli hildagi elektr energiyasi, issiqlik energiyasi, va boshqa hayotiy zarur resurslarda boladigan uzilish holatlari qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchilarga tasir qilmaydi.

REFERENCES

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063> 2022 — 2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA
2. TEEB – The Economics of Ecosystems and Biodiversity Report for Business - Executive Summary 2010. Available at http://www.unepfi.org/fileadmin/biodiversity/TEEBforBusiness_summary.pdf accessed 30 December 2018
3. PricewaterhouseCoopers (2010) 13th Annual Global CEO Survey.
4. Millennium Ecosystem Assessment, 2005. Ecosystems and Human Well-being: Synthesis. Island Press, Washington, DC. p.23.
5. Eliasch, J. (2008) Climate Change: Financing Global Forests. The Eliasch Review. UK. URL: [http://www.occ.gov.uk/activities/eliasch/Full_report_eliasch_review\(1\).pdf](http://www.occ.gov.uk/activities/eliasch/Full_report_eliasch_review(1).pdf) (last access: 23 June 2010).
6. Gallai, N., Salles, J.-M., Settele, J. and Vaissière, B.E. (2009) Economic valuation of the vulnerability of world agriculture confronted with pollinator decline. *Ecological Economics*. Vol 68(3): 810-821.
7. TEEB – The Economics of Ecosystems and Biodiversity (2009) TEEB for National and International Policy Makers. Summary: Responding to the Value of Nature. (2009) URL: <http://www.teebweb.org/LinkClick.aspx?fileticket=I4Y2nqqIiCg%3d&tabid=1019&language=en-US> (last access 23 June 2010).
8. Зайцев А.А. Межстрановые различия в душевых ВВП и производительности труда: роль капитала, уровня технологий и природной ренты. Препринт #WP/2016/01. Московская школа экономики МГУ им. М.В. Ломоносова. - М.; 1916,с.35
9. OCDE. The rents of nature: <https://stats.oecd.org/glossary/detail.asp?ID=2332> accessed 20 December 2018.
10. Millennium Ecosystem Assessment 2005. Ecosystems and Human Well-being: Synthesis. Island Press. Washington D.C.
11. Watson, J. E., Dudley, N., Segan, D. B., & Hockings, M. (2014). The performance and potential of protected areas. *Nature*, 515(7525), 67.
12. Eurostat. Environmental protection expenditure accounts https://ec.europa.eu/eurostat/statisticsexplained/index.php/Environmental_protection_expenditure_accounts accessed 4 January 2018.
13. <https://energo.house/sol/solnechnyj-kollektor-goryachee-vodosnabzhenie-i-otoplenie.html>

14. <https://lex.uz/ru/docs/-4346831> Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qonunchilik.
15. С.Н. Бобылев, В.М. Захаров Экология и экономика. «Зелёная» экономика. Человек и природа. Москва, 2015 – 96 с.
16. учебное пособие [Порфирьев Б.Н. и др.] / Под ред. акад. Б.Н. Порфирьева. – СПб.: Изд-во «МБИ», 2018. – 327 с.